



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mirgulshanbekov Xiloliddin O'ktamjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

“Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya:

mazkur ishda Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari har tomonlama tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng ushbu mamlakatlar bosqichma-bosqich tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirib, xalqaro savdo va investitsiya aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy islohotlarni amalga oshirdi. Mintaqaviy va global tashkilotlar bilan hamkorlik, raqamli iqtisodiyot va yashil rivojlanish jarayonlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, tashqi iqtisodiy faoliyat, mustaqillik, integratsiya, xalqaro hamkorlik, investitsiya, savdo, raqamli iqtisodiyot, qonunchilik, yashil rivojlanish.

Аннотация:

в данной работе проводится всесторонний анализ этапов становления и развития внешнеэкономической деятельности стран Центральной Азии. После обретения независимости государства региона поэтапно формировали внешнеэкономическую политику, внедряя правовые и институциональные реформы, направленные на развитие международной торговли и инвестиционного сотрудничества. Особое внимание уделяется взаимодействию с международными организациями, цифровой экономике и устойчивому развитию.

Ключевые слова: Центральная Азия, внешнеэкономическая деятельность, независимость, интеграция, международное сотрудничество, инвестиции, торговля, цифровая экономика, законодательство, устойчивое развитие.



Annotation:

This paper provides a comprehensive analysis of the stages of formation and development of foreign economic activity in the Central Asian countries. Following independence, these states gradually formed foreign economic policies, implementing legal and institutional reforms aimed at enhancing international trade and investment relations. The paper also examines regional cooperation, digital economy, and sustainable development initiatives.

Keywords: Central Asia, foreign economic activity, independence, integration, international cooperation, investment, trade, digital economy, legislation, sustainable development.

Markaziy Osiyo davlatlari – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston – sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidan mustaqil bo‘lib chiqqanidan so‘ng, o‘z milliy iqtisodiy siyosatini shakllantirish jarayoniga kirishdi. Bu jarayon ichki iqtisodiy islohotlar bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni ham kengaytirishni talab etdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) bu davlatlarning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi, xalqaro savdo, investitsiyalar, texnologiyalar va xizmatlar almashinuvini anglatadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati mustaqillikdan keyingi dastlabki bosqichlarida (1991–2000 yillar) muhim o‘zgarishlar va rivojlanishlarni boshdan kechirdi. Ushbu davrda Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, iqtisodiy erkinlik va global iqtisodiyot bilan integratsiya qilish yo‘lida bir qator qadamlar qo‘ydi¹.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi milliy qonunchilik bazasi aynan shu davrda shakllandi. O‘zbekiston 1991-yilda, Qozog‘iston esa 1991-yil oxirlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi asosiy qonunlarni qabul qildi².

¹ ADB. (2008). Central Asia: Increasing Gains from Trade through Regional Cooperation in Trade Policy, Transport, and Customs Transit. <https://adb.org>

² O‘zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991-yil. <https://lex.uz>



Qirg'iziston 1992-yilda, Turkmaniston 1993-yilda, Tojikiston esa 1995-yilda o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatga oid qonunchiligini ishlab chiqdi³. Ushbu huquqiy asoslar milliy iqtisodiyotlarni jahon xo'jalik tizimi bilan integratsiyalashtirishga xizmat qildi va davlatlararo savdo aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynadi⁴. Bu davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari markazlashgan, rejalashtirilgan iqtisodiy modeldan voz kechib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan ochiq iqtisodiy tizim sari harakatlana boshladilar. Davlatlar tashqi savdo faoliyatini liberallashtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish va xususiy sektorni rivojlantirishga intildilar. Biroq, bu jarayon har bir mamlakatda turlicha tezlikda va turli darajada amalga oshdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda milliy valyutaning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etdi. Bu esa tashqi savdo va to'lovlar tizimining mustaqil faoliyat yuritishini ta'minladi. O'zbekiston 1994-yilda so'mni muomalaga kiritgan bo'lsa⁵, Qozog'iston 1993-yilda tenge⁶, Qirg'iziston-1993 yilda som, Tojikiston 2000-yilda somonini muomalaga kiritdi⁷. Milliy valyutalar xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish imkonini bergan, ammo dastlabki yillarda ularning barqarorligi past bo'lgan.

Ushbu bosqichda tashqi savdo faoliyati asosan xomashyo, energiya resurslari va paxta kabi eksport mahsulotlariga tayanar edi. Tashqi bozorlar esa asosan sobiq SSSR hududidagi davlatlar bilan cheklangan bo'lib, xalqaro savdoning geografik ko'lamini tor edi. Jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlari transport infratuzilmasining zaifligi va geosiyosiy cheklovlar bilan murakkablashgan edi.

O'zgarishlar va erkinlashtirish bosqichi (2000–2010 yillar)ni o'z ichiga oladi. 2000-yillarga kelib Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va uni jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashtirish jarayoni sezilarli darajada jadallashdi. Bu bosqichda asosiy urg'u iqtisodiyotning tashqi sektorini liberallashtirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratildi.

³ UNCTAD. (2002). Investment Policy Review – Central Asia: Kyrgyz Republic, Tajikistan, Turkmenistan. <https://unctad.org>

⁴ https://www.wto.org/english/thewto_e

⁵ <https://en.wikipedia.org/>

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qozog%CA%BBiston_tengesi

⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Somoniy>



Mazkur davrda eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari soddalashtirildi. Ayrim davlatlar, jumladan Qozog‘iston va O‘zbekiston bojxona tariflari va tartiblarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rdi. Erkin savdo rejimlari, kvotalarni bekor qilish, litsenziyalash talablarini kamaytirish kabi islohotlar tashqi savdo aylanmasining hajmini oshirdi.

Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Osiyo taraqqiyot banki bilan yaqin hamkorlik o‘rnatib, ularning tavsiyalari asosida iqtisodiy liberallashtirish choralari amalga oshira boshladi. Bu jarayonlar asosan valuta bozorining erkinlashtirilishi, subsidiyalarni qisqartirish, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan edi. Xususan, O‘zbekistonda valyuta almashuvi bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirish ishlari boshlangani muhim o‘zgarish bo‘ldi.

Qirg‘iziston JSTga a‘zo bo‘lgan birinchi Markaziy Osiyo davlati sifatida (1998-yilda) tashqi iqtisodiy faoliyatda xalqaro normalarni joriy qilish yo‘lida muhim qadam qo‘ydi⁸. Bu a‘zolik mamlakatning tashqi savdoga oid qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, texnik reglamentlar va sertifikatlashtirish tizimini modernizatsiya qilishni talab etdi⁹. Qozog‘iston bu davrda JSTga kirish uchun tayyorgarlik jarayonlarini boshlagan bo‘lsa, O‘zbekiston ham xalqaro savdo tashkilotlari bilan texnik maslahatlashuvlar o‘tkaza boshladi¹⁰.

2000-yillarda Markaziy Osiyoning tashqi iqtisodiy aloqalarida transport va logistika infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Xitoy va Afg‘oniston yo‘nalishlarida savdo yo‘llarini tiklash hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Xitoy–Markaziy Osiyo temir yo‘l yo‘nalishlari, avtomobil trassalari va chegaraviy bojxona punktlarining modernizatsiyasi mintaqaviy savdoning faollashuviga turtki bo‘ldi. Bu esa Markaziy Osiyoni xalqaro transport tizimining muhim qismi sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

2000–2010 yillar oralig‘i Markaziy Osiyo davlatlari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatda muhim sifat o‘zgarishlariga boy bo‘ldi. Bu davrda davlatlar xalqaro

⁸ WTO. (1998). Kyrgyz Republic joins the WTO. https://www.wto.org/english/news_e/pres98_e/pr94_e.htm

⁹ Center for International Trade and Sustainable Development (CITSD). (2001). Kyrgyzstan and WTO: Challenges of Implementation.

¹⁰ Ministry of Investment, Industry and Trade of Uzbekistan. (2023). Uzbekistan’s Accession to the WTO: Status and Progress. <https://www.miit.uz>



bozorga ochiqlikni oshirdi, erkin savdo siyosatini shakllantirdi va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun qulay infratuzilmani yaratishga kirishdi. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va transport yo‘laklarining rivojlanishi mintaqaning global iqtisodiy tizimdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qildi.

Regional hamkorlik va tashqi iqtisodiy integratsiya bosqichi (2010–2020 yillar)ni o‘z ichiga qamrab oladi. 2010–2020 yillar oralig‘i Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda mintaqada iqtisodiy integratsiya, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashga alohida urg‘u berildi. Globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, transport yo‘laklarining strategik ahamiyati ortishi va Xitoy, Rossiya kabi yirik davlatlarning geoiqtisodiy manfaatlari Markaziy Osiyoni xalqaro iqtisodiy makonda faol o‘yinchiga aylantira boshladi.

Qozog‘iston 2015 yilda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YEOII) to‘laqonli a‘zo bo‘ldi¹¹. Bu ittifoq Rossiya, Belarus, Armaniston va boshqa sovet davlatlari bilan umumiy bojxona hududini shakllantirish va yagona iqtisodiy makon yaratishga intiladi¹². Qozog‘istonning bu tuzilmaga qo‘shilishi natijasida tashqi savdo siyosati, bojxona tartibotlari va texnik reglamentlar ittifoq darajasida muvofiqlashtirildi. Bu esa Qozog‘iston iqtisodiyotining tashqi savdo sheriklari tarkibini diversifikatsiya qilish, Rossiya va boshqa YEOII mamlakatlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish imkonini berdi¹³.

ShHT tarkibida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston, Xitoy va Rossiya bilan iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida strategik hamkorlikni rivojlantirdi. Tashkilot doirasida nafaqat xavfsizlik, balki transport, energetika, bojxona hamkorligi kabi yo‘nalishlarda ko‘p tomonlama loyihalar yo‘lga qo‘yildi. ShHT doirasidagi iqtisodiy forumlar va biznes kengashlar mamlakatlar o‘rtasida investitsiya va savdo hajmini oshirishga xizmat qildi.

Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasida Markaziy Osiyo davlatlarida yirik transport va infratuzilma loyihalari boshlangan.

¹¹ Eurasian Economic Commission. (2015). Kazakhstan becomes a full member of the Eurasian Economic Union. <http://www.eurasiancommission.org>

¹² Vinokurov, E. (2018). Introduction to the Eurasian Economic Union. Springer.

¹³ World Bank. (2017). Eurasian Economic Integration: Impact on Kazakhstan's Trade and Growth. <https://www.worldbank.org>



Ushbu tashabbus Markaziy Osiyoni Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'laydigan asosiy geoiqtisodiy ko'priikka aylantirishni maqsad qilgan. Misol sifatida, Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li loyihasi mintaqaviy yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro tranzit salohiyatini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Bu loyiha mintaqani dengiz portlariga bog'lab, uning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

2016-yildan boshlab O'zbekistonda tashqi siyosatda ochiqlik va konstruktiv mintaqaviy hamkorlik tamoyili asosida faol islohotlar amalga oshirildi. Vizasiz yoki vizani soddalashtirilgan tartibda berish tizimlari joriy qilinib, turizm va biznes almashinuvi rivojlantirildi. Investitsion sohada esa xorijiy investorlar uchun yangi imtiyozlar, erkin iqtisodiy zonalar va soddalashtirilgan soliq va bojxona tartibotlari yo'lga qo'yildi.

Raqamli va innovatsion iqtisodiyot sari yo'nalish (2020-yildan hozirgi kungacha) Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqich boshladi. Bu bosqich raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, ekologik barqarorlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanmoqda¹⁴. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, xususan, pandemiyadan keyingi global savdo tartiblarining transformatsiyasi, logistika zanjirlarining qayta shakllanishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji Markaziy Osiyo mamlakatlarini yangi strategik yo'nalishlarni belgilashga majbur qildi¹⁵.

Tashqi savdo operatsiyalarini tez, shaffof va samarali amalga oshirish maqsadida ko'plab davlatlar raqamli platformalarni joriy eta boshladi. Jumladan:

1. Elektron bojxona tizimlari, raqamli sertifikatlash va litsenziyalash xizmatlari joriy qilinmoqda;
2. O'zbekistonda "Yagona eksportchilarga xizmat ko'rsatish markazlari" raqamli interfeys asosida ish yuritmoqda;
3. Qozog'iston va Qirg'izistonda elektron savdo maydonchalari va logistika monitoring tizimlari yo'lga qo'yilgan¹⁶.

¹⁴ UN ESCAP. (2022). Digital Economy in Central Asia: Progress and Opportunities. <https://unescap.org>

¹⁵ OECD. (2023). The impact of COVID-19 on Central Asia's trade. <https://oecd.org>

¹⁶ UNCTAD. (2023). E-commerce and trade digitalization in Kazakhstan and Kyrgyzstan. <https://unctad.org>



Bu tizimlar tashqi savdo faoliyatida byurokratik to'siqlarni kamaytirib, eksport-import jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun investitsion siyosatni takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi. O'zbekistonda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatini kuchaytirish, xorijiy investorlar uchun soliq, bojxona va mulk kafolatlarini oshirish bo'yicha bir qator qonunchilik-huquqiy islohotlar amalga oshirildi¹⁷. Qozog'iston "Invest in Kazakhstan" platformasini ishga tushirdi¹⁸, Qirg'iziston va Tojikiston esa "bir darcha" tamoyiliga asoslangan investitsiya xizmatlarini yo'lga qo'ymoqda¹⁹.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamda ularning yirik savdo sheriklari bilan imzolangan erkin savdo bitimlari, tranzit va logistika kelishuvlari, sarmoya bitimlari soni ortib bormoqda. Masalan:

- 1) O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida chegaraviy savdo zonasini tashkil etish loyihasi amalga oshirilmoqda;
- 2) Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Xitoy bilan transport va bojxona sohasida hamkorlik bitimlari imzolagan;
- 3) Mintaqada TIFni soddalashtirish bo'yicha regional mexanizmlar yo'lga qo'yilmoqda.

Bu bitimlar nafaqat xalqaro savdoni rivojlantirishga, balki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish fonida ekologik mezonlar va yashil iqtisodiyot tamoyillari tashqi savdo siyosatiga integratsiyalashmoqda. Xususan:

Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalarida karbon izlari, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan me'yorlar inobatga olinmoqda;

Qozog'iston va O'zbekiston yashil energetika (quyosh va shamol) bo'yicha xorijiy investitsiya loyihalarini faol jalb etmoqda;

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). Investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha qonunchilikdagi yangiliklar. <https://www.invest.gov.uz>

¹⁸ Government of Kazakhstan. (2024). Invest in Kazakhstan Platform. <https://invest.gov.kz>

¹⁹ State Committee on Investment and State Property Management of the Republic of Tajikistan. (2023). Investment Policy and One-Stop Shop Mechanism. <http://www.investcom.tj>



“Yashil yo‘l” tamg‘asiga ega tovarlar eksporti istiqbolli yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Bu jarayonlar mintaqaning xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ekologik xavfsizlikni ham ta‘minlaydi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo hajmi keskin ortmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida savdo hajmi yildan-yilga ko‘payib, o‘zaro muhim savdo sheriklariga aylanishmoqda. Savdo to‘siqlari kamaymoqda, chegaraviy infratuzilmalar yaxshilanmoqda va tranzit-transport yo‘laklari modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning tub mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Umumiy qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli darajada faollashib, bosqichma-bosqich shakllanib bordi. Mustaqillik yillarining boshlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish, savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifaga aylandi. Keyingi bosqichlarda tashqi savdoni erkinlashtirish, bojxona va valyuta tartibotini soddalashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaydi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab mintaqaviy hamkorlik faollashib, O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik va integratsiyaga tayangan yondashuvni ilgari surdi. Bugungi kunga kelib, raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, elektron savdo va investitsion muhitni yaxshilash tashqi iqtisodiy strategiyaning ajralmas qismiga aylandi. Xalqaro bitimlar sonining ortishi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va mintaqaviy savdoning kuchayishi Markaziy Osiyoni global iqtisodiy tizimga tobora yaqinlashtirmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik, texnologik raqobatbardoshlik va institutsional islohotlar bu jarayonning muhim omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991-yil. <https://lex.uz>
2. UNCTAD. (2002). Investment Policy Review – Central Asia: Kyrgyz Republic, Tajikistan, Turkmenistan. <https://unctad.org>
3. ADB. (2008). Central Asia: Increasing Gains from Trade through Regional Cooperation in Trade Policy, Transport, and Customs Transit. <https://adb.org>



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

4. State Committee on Investment and State Property Management of the Republic of Tajikistan. (2023). Investment Policy and One-Stop Shop Mechanism. <http://www.investcom.tj>
5. Vinokurov, E. (2018). Introduction to the Eurasian Economic Union. Springer.
6. Eurasian Economic Commission. (2015). Kazakhstan becomes a full member of the Eurasian Economic Union. <http://www.eurasiancommission.org>
7. Center for International Trade and Sustainable Development (CITSD). (2001). Kyrgyzstan and WTO: Challenges of Implementation.
8. MF. Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. – International Monetary Fund, 2023.
9. Starr, S.F., Cornell, S.E. Modernizing the Silk Road: Central Asia's Global Integration. – Central Asia-Caucasus Institute, 2018.
10. Pomfret, R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. – Princeton University Press, 2019.

Foydalanilgan saytlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari – <https://lex.uz>
2. JST (WTO) rasmiy sayti – <https://www.wto.org>
3. UNCTAD (BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi) – <https://unctad.org>
4. ADB (Osiyo taraqqiyot banki) – <https://adb.org>
5. YEOII (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi) – <https://eec.eaeunion.org>
6. O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi – <https://mift.uz>
7. Qozog'iston Investitsiya portali – <https://invest.gov.kz>
8. WTO accession documents and updates for Central Asia – https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/cbt_course_e/cbt_course_e.htm
9. World Bank regional economic updates – <https://www.worldbank.org/en/region/eca>
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). Investitsion islohotlar haqida ma'lumot. <https://mift.uz>
11. UN ESCAP. (2022). Digital Economy in Central Asia: Progress and Opportunities. <https://unescap.org...>